

**XAVF GURUHIDAGI SHAXSLARNING IJTIMOY MOSLASHUVIGA TA'SIR
ETUVCHI PSIXOSOTSIAL ATRIBUTLAR**

Kemalbaev Qonisbay Kemalbay uli

Kegeyli tumani IIB JQX XPB katta inspector-psixologi katta leytenant.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19148167>

Annotatsiya. Mazkur maqolada xavf guruhiga kiruvchi shaxslarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy psixosotsial omillar tahlil qilinadi. Ijtimoiy moslashuv insonning jamiyatdagi ijtimoiy rollarni bajarish, ijtimoiy normalarga moslashish hamda shaxslararo munosabatlarni samarali shakllantirish qobiliyatini ifodalaydi. Xavf guruhiga kiruvchi shaxslar turli ijtimoiy, psixologik hamda iqtisodiy omillar tufayli jamiyatga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Maqolada ijtimoiy moslashuvga ta'sir etuvchi psixologik barqarorlik, o'z-o'zini baholash, stressga chidamlilik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, kommunikativ kompetensiya kabi psixosotsial atributlar ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy moslashuv jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan shaxsning psixologik xususiyatlari va uni o'rab turgan ijtimoiy muhit bilan bog'liq ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: xavf guruhi, ijtimoiy moslashuv, psixosotsial atributlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, psixologik barqarorlik, shaxs rivojlanishi, stressga chidamlilik.

Аннотация. В данной статье анализируются основные психосоциальные факторы, влияющие на процесс социальной адаптации лиц, входящих в группу риска. Социальная адаптация выражает способность человека выполнять социальные роли в обществе, адаптироваться к социальным нормам и эффективно формировать межличностные отношения. Лица, входящие в группу риска, могут столкнуться с трудностями в адаптации к обществу из-за различных социальных, психологических и экономических факторов. В статье на основе научных источников анализируются такие психосоциальные атрибуты, как психологическая устойчивость, самооценка, стрессоустойчивость, социальная поддержка, коммуникативная компетентность, влияющие на социальную адаптацию. По результатам исследования установлено, что эффективность процесса социальной адаптации во многом зависит от психологических особенностей личности и окружающей ее социальной среды.

Ключевые слова: группа риска, социальная адаптация, психосоциальные атрибуты, социальная поддержка, психологическая стабильность, личностное развитие, стрессоустойчивость.

Abstract. This article analyzes the main psychosocial factors influencing the process of social adaptation of individuals belonging to the risk group. Social adaptation expresses a person's ability to fulfill social roles in society, adapt to social norms, and effectively form interpersonal relationships. Individuals at risk may face difficulties in adapting to society due to various social, psychological, and economic factors. The article analyzes psychosocial attributes influencing social adaptation, such as psychological stability, self-esteem, stress resistance, social support, and communicative competence, based on scientific sources. According to the research results, it was established that the effectiveness of the social adaptation process largely depends on the psychological characteristics of the individual and the social environment surrounding them.

Keywords: risk group, social adaptation, psychosocial attributes, social support, psychological stability, personal development, stress resistance.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy o'zgarishlarning tezlashuvi, iqtisodiy va madaniy transformatsiyalar natijasida ayrim ijtimoiy guruhlar jamiyatga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj, turli psixologik yoki ijtimoiy muammolarga ega bo'lgan shaxslar **xavf guruhiga** kiradi. Bunday shaxslar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga moslashishda turli to'siqlarga duch keladi. Ijtimoiy moslashuv shaxsning jamiyat talablariga moslashishi, ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarishi va jamiyat bilan samarali munosabatlar o'rnatishini anglatadi. Psixologiya va sotsiologiya fanlarida ijtimoiy moslashuv shaxsning psixologik xususiyatlari va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida qaraladi.

Xavf guruhidagi shaxslar qatoriga quyidagilar kirishi mumkin:

- ijtimoiy yetim bolalar;
- kam ta'minlangan oilalardagi yoshlar;
- deviant xulq-atvoriga moyil shaxslar;
- migratsiya jarayonida ijtimoiy muammolarga duch kelgan shaxslar;
- nogironligi bo'lgan shaxslar;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar;
- notinch yoki muammoli oilada tarbiyalanayotgan bolalar;
- psixologik travma olgan shaxslar.

Bunday shaxslar ko'pincha ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yetishmasligi sababli jamiyatga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi. Mazkur guruh vakillari uchun ijtimoiy moslashuv jarayoni ko'pincha murakkab kechadi. Shu sababli ularning moslashuviga ta'sir etuvchi psixosotsial atributlarni o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ijtimoiy moslashuv tushunchasining nazariy asoslari: Ijtimoiy moslashuv tushunchasi ko'plab psixolog va sotsiolog olimlar tomonidan o'rganilgan. Psixologiyada bu jarayon shaxsning ijtimoiy muhitga moslashishi, undagi talab va normalarni qabul qilishi bilan bog'liq. Masalan; **A. Maslou** inson ehtiyojlari ierarxiyasi nazariyasida shaxsning jamiyatga moslashuvi uning asosiy ehtiyojlari qondirilishi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Agar shaxsning fiziologik, xavfsizlik, ijtimoiy, hurmat va o'zini namoyon qilish ehtiyojlari qondirilsa, u jamiyatda faolroq moslashadi.

E. Erikson psixosotsial rivojlanish nazariyasida shaxsning rivojlanishi turli bosqichlardan o'tishini va har bir bosqichda ijtimoiy muhit muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Ijtimoiy moslashuv quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- ijtimoiy normalarni qabul qilish;
- ijtimoiy rollarni bajarish;
- ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish;
- shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash.

Xavf guruhidagi shaxslar uchun ushbu elementlarni amalga oshirish ko'pincha murakkab bo'ladi.

Xavf guruhidagi shaxslar tushunchasi

“Xavf guruhi” atamasi sotsiologiya va psixologiyada shaxsning ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan omillar mavjud bo’lgan guruhlarini anglatadi. Xavf guruhidagi shaxslar quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turishi mumkin:

- ijtimoiy muhitning noqulayligi;
- psixologik stressning yuqoriligi;
- ijtimoiy qo’llab-quvvatlashning yetishmasligi;
- iqtisodiy qiyinchiliklar.

Bunday shaxslar jamiyatdagi ijtimoiy institutlar bilan munosabat o’rnatishda muammolarga duch kelishi mumkin

Ijtimoiy moslashuvga ta’sir etuvchi psixosotsial atributlar:

• **Psixologik barqarorlik:** Psixologik barqarorlik shaxsning stressli vaziyatlarda o’zini boshqarish qobiliyatini anglatadi. Xavf guruhidagi shaxslar ko’pincha yuqori darajadagi stressga duch keladi. Agar shaxs psixologik jihatdan barqaror bo’lsa, u ijtimoiy muammolarni samarali hal qila oladi. Psixologik barqarorlik quyidagi komponentlardan iborat:

- emotsional nazorat;
- muammolarni hal qilish qobiliyati;
- stressga chidamlilik.

O’z-o’zini baholash: O’z-o’zini baholash shaxsning o’z qobiliyatlari va imkoniyatlariga bergan bahosidir. Past o’z-o’zini baholash shaxsning ijtimoiy faoliyatini cheklashi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, yuqori o’z-o’zini baholashga ega shaxslar ijtimoiy munosabatlarni osonroq o’rnatadi, stressni yengilroq yengadi, jamiyatga tezroq moslashadi.

Ijtimoiy qo’llab-quvvatlash: Ijtimoiy qo’llab-quvvatlash ijtimoiy moslashuvning muhim omillaridan biridir. U quyidagilarni o’z ichiga oladi: oila qo’llab-quvvatlashi, do’stlar yordam, ijtimoiy institutlar yordami. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, ijtimoiy qo’llab-quvvatlash mavjud bo’lgan shaxslar jamiyatga tezroq moslashadi.

Kommunikativ kompetensiya — bu shaxsning turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali muloqot qilish, axborotni to’g’ri yetkazish, suhbatdoshni tushunish va ijtimoiy munosabatlarni samarali tashkil etish qobiliyatidir. Ushbu tushuncha psixologiya, sotsiologiya va pedagogika fanlarida keng qo’llaniladi hamda shaxsning ijtimoiy moslashuvi va ijtimoiy faoliyatida muhim rol o’ynaydi.

Ilmiy adabiyotlarda kommunikativ kompetensiya tushunchasi birinchi marta amerikalik tilshunos **Dell Hymes** tomonidan 1972-yilda ilgari surilgan. Hymes fikriga ko’ra, kommunikativ kompetensiya nafaqat tilni grammatik jihatdan bilish, balki uni **ijtimoiy vaziyatga mos ravishda qo’llash qobiliyatini ham** o’z ichiga oladi. Keyinchalik ushbu tushuncha psixologiya va ijtimoiy psixologiya sohalarida keng rivojlantirildi.

Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari

Ilmiy manbalarga ko’ra kommunikativ kompetensiya bir necha asosiy komponentlardan tashkil topadi.

1. Kognitiv component

Bu shaxsning muloqot jarayoni, ijtimoiy normalar va kommunikativ strategiyalar haqidagi bilimlarini anglatadi. Masalan, inson qaysi vaziyatda qanday gapirish kerakligini, suhbat etiketi va ijtimoiy qoidalarni bilishi kerak.

2.Emotsional component

Bu komponent muloqot jarayonida boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish, empatiya qilish va emotsiyalarni boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Empatiya kommunikativ kompetensiyaning muhim elementi hisoblanadi, chunki u samarali ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi.

3.Xulq-atvor (behavioural) komponenti

Bu shaxsning muloqot jarayonida o'z fikrini aniq ifoda etishi, tinglash qobiliyati, savol berish, murosaga kelish va nizolarni hal qilish kabi amaliy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ kompetensiyaning asosiy ko'nikmalari

Ilmiy tadqiqotlar kommunikativ kompetensiya quyidagi ko'nikmalar orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi:

- faol tinglash qobiliyati;
- fikrni aniq va mantiqiy ifoda etish;
- empatiya va boshqalarni tushunish;
- ijtimoiy vaziyatni to'g'ri baholash;
- nizolarni konstruktiv hal qilish;
- verbal va nonverbal muloqotni uyg'unlashtirish.

Verbal va nonverbal kommunikatsiya

Kommunikativ kompetensiya ikki asosiy muloqot shakliga asoslanadi:

Verbal kommunikatsiya — so'z orqali axborot almashish jarayonidir. Bu nutq madaniyati, so'z boyligi va fikrni aniq yetkazish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Nonverbal kommunikatsiya — imo-ishora, mimika, tana harakati, ovoz ohangi kabi vositalar orqali axborot uzatish jarayonidir. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, muloqot jarayonidagi axborotning katta qismi aynan nonverbal signallar orqali uzatiladi.

Kommunikativ kompetensiyaning ijtimoiy moslashuvdagi ahamiyati.

Kommunikativ kompetensiya shaxsning ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy psixologiya tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, yuqori kommunikativ kompetensiyaga ega shaxslar:

- ijtimoiy munosabatlarni tezroq o'rnatadi;
- jamoaga oson moslashadi;
- nizoli vaziyatlarni samarali hal qiladi;
- ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'ini kengroq shakllantiradi.

Ayniqsa, **xavf guruhidagi shaxslar** uchun kommunikativ kompetensiyaning rivojlangan bo'lishi ijtimoiy integratsiya jarayonida muhim ahamiyatga ega. Chunki samarali muloqot ko'nikmalari ularga jamiyat bilan konstruktiv aloqalar o'rnatish va ijtimoiy muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotlar natijalari

Psixolog **Albert Banduraning** ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, kommunikativ xulq-atvor ko'pincha kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanadi. Ya'ni shaxs oila, maktab va ijtimoiy muhit orqali muloqot ko'nikmalarini o'zlashtiradi.

Shuningdek, ijtimoiy psixolog **G.M. Andreeva** kommunikativ kompetensiyaning shaxsning ijtimoiy faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida ta'riflab, uning uchta asosiy jihatini ajratadi:

1. kommunikativ jarayon;
2. ijtimoiy idrok (persepsiya);
3. o'zaro ta'sir.

Stressga chidamlilik: Stressga chidamlilik shaxsning qiyin vaziyatlarda ruhiy barqarorligini saqlab qolish qobiliyatidir. Xavf guruhidagi shaxslar ko'pincha turli ijtimoiy stresslarga duch keladi.

Stressga chidamlilik yuqori bo'lgan shaxslar:muammolarni konstruktiv hal qiladi;ijtimoiy aloqalarni saqlab qoladi;moslashuv jarayonida kamroq qiyinchilikka duch keladi.

Xavf guruhidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuv muammolari:

Xavf guruhidagi shaxslar ko'pincha quyidagi muammolarga duch keladi:ijtimoiy izolyatsiya, psixologik beqarorlik,deviant xulq-atvor,ijtimoiy institutlar bilan muammolar. Bu muammolar ularning jamiyatga moslashuvini qiyinlashtiradi.

Ijtimoiy moslashuvni yaxshilash yo'llari

Xavf guruhidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash uchun quyidagi choralar muhim hisoblanadi:

1. Psixologik yordam xizmatlarini rivojlantirish.
2. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.
3. Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlarini kengaytirish.
4. Profilaktik psixologik dasturlarni joriy etish.

Xulosa

Xavf guruhidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuvi murakkab va ko'p omilli jarayondir.Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xavf guruhidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuvi ko'p jihatdan psixosotsial atributlarga bog'liq. Psixologik barqarorlik, o'z-o'zini baholash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va kommunikativ kompetensiya ijtimoiy moslashuv shaxslarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maslow A. Motivation and Personality. New York, 1954.
2. Erikson E. Childhood and Society. New York, 1963.
3. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, 1977.
4. Карпова Е.В. Социальная психология личности. Москва, 2018.
5. Андреева Г.М. Социальная психология. Москва, 2015.
6. Кон И.С. Психология ранней юности. Москва, 1989.